

# ИЮНЬ 2021

Тошкент, Ўзбекистон

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР:  
ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ



## МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА  
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ»**

---

**«ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В  
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:  
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ  
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ»**

---

**«DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN  
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND  
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY»**



**Замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2021] 1 июнь 2021 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2021. - 135 б**

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf\_4/06/2021

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

## Тахририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Сандович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джуроев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми – (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатольевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, ф.ф.д.
12. Муслимов Нарзулла Алиханович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович – педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Багировна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садикова Альбина Венеровна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдазимов Азиз Абдусобирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Рахимова Гулсанам Аширбековна – Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

*Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг туғрилигига муаллифлар масъулдир*

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улицв Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr. 1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

|                                                                                                                                                                                                        |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Yusupjonova Navbahor, Adilova Muqaddas, Oygul Mirzaboyeva</b><br>DARS JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN<br>FOYDALANISH .....                                                             | 7  |
| <b>Ahmedova Manzura Sattarovna</b><br>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH .....                                                                                                  | 9  |
| <b>Asadova Dilbarxon Fayzulloevna</b><br>TURK DIPLOMATIYASI VA DIPLOMATIK TERMINLARNING YUZAGA KELISHI<br>TARIXI .....                                                                                 | 11 |
| <b>Ashrapova Nigora Olimovna</b><br>TANGLIK VAZIYATIDA QOLGAN O'SMIR YOSHLARGA PSIXOLOGIK<br>YORDAM.....                                                                                               | 14 |
| <b>Avganova Ozoda</b><br>THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF FURKAT .....                                                                                                                     | 16 |
| <b>Azatova Nodira Anvarbek qizi</b><br>TARJIMANING MADANIY XUSUSIYATLARI BORASIDAGI LINGVISTIK<br>QARASHLAR.....                                                                                       | 18 |
| <b>Xolmanova Shoxsanam, Suvonova N. N</b><br>BADIY MATNLARDA EMOTSIYANI TASVIRLASH VOSITALARI( FRANSUZ VA<br>O'ZBEK TILI MATERIALIDA). .....                                                           | 20 |
| <b>Kurbanova Feruza Choriyevna</b><br>BANK SOHASIDA BLOKCHEYN.....                                                                                                                                     | 22 |
| <b>Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o'g'li, Rajabov Xursandbek Qadamboy o'g'li,</b><br><b>Karimov Abdullatif Azizbek o'g'li</b><br>O'LCHASH VOSITALARINING DASTURIY TA'MINOT METODIKASI.....               | 24 |
| <b>Eshmurodov Azamat G'uzorovich, Raxmatov Anvar Raxmatovich</b><br>OLIY TA'LIM MUASSASASIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISH<br>UCHUN MASOFAVIY TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH .....                | 26 |
| <b>Alfiya Akhmadfaridovna Lutfullina</b><br>ETHNOCULTURAL AND HISTORICAL PROCESSES IN THE FORMATION OF<br>PROPER NAMES IN THE UZBEK LANGUAGE SYSTEM. ....                                              | 28 |
| <b>Hikmatullo Do'smatov, Mahmudova Fotimaxon, Mahmudova Zulayho</b><br>O'ZLASHMA LEKSEMALARINING NUTQIY CHEGARASI .....                                                                                | 30 |
| <b>Ibragimova Maftuna Abdulazizovna</b><br>MAHALLA VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....                                                                                                           | 32 |
| <b>Iskenderova Gulnar Sarsenbaevna, Mukhanova Laylo Bekmuratovna</b><br>PHRASEOLOGY: WORD-GROUPS WITH TRANSFERRED MEANINGS .....                                                                       | 34 |
| <b>Kamolov Jasurbek Muxsinovich</b><br>"TA'VIZ-UL OSHIQIN" DEVONI RUBOIYLARINING MAVZULAR KO'LAMI .....                                                                                                | 36 |
| <b>Karimova Xilola Turg'unovna</b><br>SAVOD O'RGATISH MASHQLARINING ASOSIY TURLARI.....                                                                                                                | 38 |
| <b>Kilicheva Raxatay Kuziyevna</b><br>ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANISHNING AHAMIYATI .....                                                                                                           | 40 |
| <b>Lafasova Mavjuda To'lqin qizi</b><br>OMONIMIYA-SHAKLIY PARADIGMA ASOSIDAGI HODISA .....                                                                                                             | 42 |
| <b>Makarova Ayzada</b><br>GRAMMATIKANI O'QITISHNING AHAMIYATI VA UNING ONA TILI O'QITISHDA<br>TUTGAN O'RNI .....                                                                                       | 44 |
| <b>Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna</b><br>ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: INGLIZ TILINI<br>O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN<br>FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH..... | 46 |
| <b>Mamayusupova Maftuna</b><br>"VATANNI MADHINI KUYLAGAN SHOIR"-ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJOD<br>YO'LI.....                                                                                            | 48 |
| <b>Muxamadiyeva Nodira</b><br>AMERIKA VA BRITANIYA INGLIZ TILIDA FRASEOLOGIK BIRLIKLARNING                                                                                                             |    |



## OMONIMIYA-SHAKLIY PARADIGMA ASOSIDAGI HODISA

**Lafasova Mavjuda To'liqin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti  
Tel.raqam: +99899 790-15-22

**Annotatsiya:** Omonimlar-umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlardir. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq hodisalar omonimiya deb yuritiladi. Omonimiya badiiy asarlarda, kundalik muloqot jarayonida keng qo'llaniladigan hodisa bo'lib, uning mavjudligi nutqni ta'sirchan qilishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada omonimlar haqida atroflicha fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** omonimiya, omonim so'zlar, tuyuq janri, tajnis san'ati, shakldoshlik.

Odatda, so'zlar aytilishi, yozilishi va ma'nolarini qiyoslash natijasida turli guruhlariga bo'linadi. Bir xil aytilib yoki yozilib, turli ma'nolarni ifoda qiluvchi so'zlar omonimlar deyiladi (grekcha homog – "bir xil", onyma – "nom"). Omonimlar quyidagi turlarga bo'linadi: a) haqiqiy omonimlar: ot – hayvon, ot – nom. Ot – biror narsani ulotqirmoq, ot – miltiq bilan otmoq; b) aytilishi bir xil, lekin ma'no-lari va yozilishi har xil bo'lgan omofonlar: qurt – hasharot, qurt – sut – qatqdan qilingan ozuqa; ruscha лук – piyoz, луг – o'tloq; v) omograflar, ya'ni yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar: son – raqam, son – odam jismidagi a'zo: inglizcha tear – ko'z yoshi, tear – yirtilmoq; g) omoforma yoki leksik-grammatik omonimlar, ya'ni grammatik shakli to'g'ri keluvchi, biroq ma'nolari farqlanuvchi so'zlar: qarg'a – qushning turi, qarg'a – qarg'amoq fe'lining buyruq shakli, o't – o'simlik turi, o't – olov, o't – o'tmoq fe'lining buyruq shakli, ruscha moy – olmosh, moy – buyruq fe'li. Ingliz tilida hour – soat, our – bizning, light – yoriq, light – yengil. Ba'zan bir xil yoziluvchi, biroq talaffuzida urg'uning o'rni bilan farqlanuvchi qarg'a (qush) – qarg'a ("qarg'amoq" fe'li-ning buyruq shakli) omoformalar bir yo'la omograflar bo'la oladi.

Ba'zi omonimlar ona tilidagi so'zning yozilishi yoki aytilishiga boshqa tildan kirgan so'zning yozilishi yoki aytilishining mos kelib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, tok – elektr quvati, tok – uzum daraxti, to'rt – son, tort – ozuqa (ko'pincha o'zbek tilida to'rt deb talaffuz etiladi). Ko'pincha omonimlar tildagi tovush o'zgarishlari natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ingliz tilida piece – bo'lak, peace – tinchlik, weak – kuchsiz, week – hafta, tear – ko'z yoshi, tear – yirtmoq kabi omonimlar tarkibidagi unli tovushlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan. Ingliz tilida so'zlarning yozilishi va talaffuzi o'rtasida katta farq mavjud. Unda har xil yoziluvchi so'zlar ham bir xil talaffuz qilinishi mumkin: knight – farzin, night – kechasi, die – o'lmoq, dye – bo'yamoq kabi. Shu sababli bu tilda omonimlarning har xil turlari juda ko'p uchraydi. Ma'no jihatdan farqlanuvchi, biroq aytilishi va yozilishi bir xil bo'lgan so'zlar to'liq omonimlar deb ataladi. Agar so'zlarning faqat yozilishi yoki talaffuzi bir xil bo'lsa, ular to'liq bo'lmagan omonimlar deyiladi.

Omonimlarning kelib chiqishini so'zlarning ko'p ma'noli xususiyatlarining kamayishi bilan izohlash ham mumkin. Bosmoq fe'lining polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli xususiyati kuchsizdir. Shu sababli bu fe'lining buyruq shakli "bosma", boshqa shu o'zakdan hosil bo'lgan "bosma" (qog'oz) oti bilan omonim bo'lib qolgan. Omonimlarni farqlashda ularning tarixiy kelib chiqishini ham hisobga olish zarur. Masalan, tug'ilmoq chaqaloq tug'ildi va tug'ilmoq (fikir tug'ildi, hosil bo'ldi). Har ikkisi bir o'zakdan kelib chiqqan. Omonimlarning kelib chiqishida tildagi tovush o'zgarishlari, yozuv qoidalari va semantik siljishlar muhim manba bo'ladi. Omonimlarning ma'nolari nutq situatsiyasida, kontekstda aniqlanadi.

Tilda so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra omonim, sinonim, antonim va paronim so'zlariga bo'linishi barchaga ma'lum. Bu esa nutqning chiroyli, ta'sirchan ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma'no qirralarini farqlashga yordam beradi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonim so'zlardir. Shu jumladan, omonimlar ham shakli va qo'llanilish uslubi jihatdan alohida o'ringa ega so'zlardir. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakllari tasodifan teng bo'lib qoladi:



baqa-qurbaqa, baqa-suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;

2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unutilib, bir so'z negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: kun-quyosh; kun- sutka, kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo'lgan vaqt;

3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shakllan teng bo'lib qoladi: toy(fors-tojik)-katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzidagi mol o'lchovi;

4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida shakllan teng bo'lgan so'zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: surat(arabcha)-rasm, surat(arabcha)-urf-odat;

5. Leksemalarning yasalihi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo'noq-tariq, qo'noq(qo'n+oq)-mehmon kabi.

Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar (Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta'sirchanlikni oshirishda omonimiyadan unumli foydalanganlar. Xorazmiyning "Bo'yung sarv-u sanobardek beling qil, Vafo qilgan kishilarga vafo qil" bayti yoki Alisher Navoiyning "Olmani sundi nigorim—ol— dedi, Olma birla bu ko'ngulni ol—dedi, So'rdim ersa olmasining rangini, Ne so'rarsan?—olma rangi ol, dedi, tuyug'i buning yorqin isbotidir. Dastlabki paytda "qil" so'zi 2 ma'noda (qilga o'xshash ingichka; qilmoq- fe'lning o'zagi) ishlatilgan bo'lsa, tuyuqda "ol" so'zi 3ma'noda qo'llanilgan( buyruq fe'li; ko'ngil ovlamoq; qizil rang, ol rang).

Omonimiya hodisasidan Yusuf Xos Hojib ham o'z asarlarida unumli foydalangan:

Tili yalg'an erning jafa qilqi ul,

Jafa kimda ersa o'shal yilqi ul,

Kishi yalg'anindan tilama vafa,

Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.

Yuqorida yilqi ul so'zi "ot yoki otlar podasi, uyur" ma'nosini anglatib, (O'TIL. 2.269-bet), keyin baytdagi yilqi ul "ancha yilga oid, aytilaverib siyqasi chiqib ketgan gap" (O'TIL. 2. 268-bet) ma'nosini bildirayotgan so'z bilan omonimlik munosabatini hosil qilmoqda. Bu esa adibning so'z qo'llash mahoratining boyligini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, omonimlardan foydalanish yozuvchining imkoniyatlarini kengaytiradi va asarning o'qishlilikini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985
2. Aliqulov T. O'zbek leksikografiyasi 70 yil ichida // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1987 -№ 5
3. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1
4. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1984.